

## KEKSALIK DAVRINING BIOLOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

<sup>1</sup>Ziyadullayeva Munisa Ubaydulla qizi

<sup>2</sup>J.Majidov

**<sup>1</sup>Jizzax davlat pedagogika instituti, Pedagogika va psixologiya fakulteti, 2-talabasi,  
<sup>2</sup>Ilmiy rahbar.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7420700>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada keksalik davridagi biologik va psixologik o'zgarishlar, fiziologik xususiyatlari haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** keksayish, gerontopsixologiya, gerontologiya, destruktiv depressiya, fiziologik.

Mustaqillik sharofati bilan yurtimiz har tomonlama taraqqiy etib, rivojlanib borayotgan ekan, xalqimiz azaliy orzu-umidlari, istak va xohishlari ro'yobga chiqib kelmoqda.

Mustaqillikka erishganimizdan soʻng har bir yangi yilni alohida nom bilan atalayotganligi va buning asosida insonlar baxt-saodati uchun muhim ishlar amalga oshirilayotganligi hamda hozirda global boʻlgan muammolar hal qilinib insonlar qadr-qimmati ulugʼlanib yuksaklarga koʻtarilayotganligini guvohi boʼlmoqdamiz.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan 2015-yilni 2 Keksalarni eʼzozlash yili deb eʼlon qilinganligi keksalarimizga nisbatan chuqur hurmat va ehtirom nishonasi desak aslo mubolagʼa boʼlmaydi. Shu asnoda aytib oʼtish joizki, keksalar uyimizning koʼrki, qalbimizni munavvar qilib turguvchi chiroq, beminnat duogoʼy, tajribalari-yu maslahatlari bilan biz yoshlarga toʼgʼri yoʼl koʼrsatuvchi porloq yulduzimizdir.

Dunyo aholisining keksayishi roʼy bermoqda, yaʼni rivojlangan mamlakatlarda keksa insonlar soni ortib bormoqda. Aholi keksayishining sabablaridan biri salomatlikning yaxshilanishi, tugʼilishning kamayishi, katta-kichik yoshdagilarning oʼlim sonini kamayishi natijasida aholi oʼrtasida keksalar soni oshib bormoqda. Keksalarda biologik jarayon sifatida organizmning keksayishi yaʼni organizm ishlashining susayishi kuzatiladi, bu yoshdagi insonlarda jismoniy kuchi kamayganligini kuzatish mumkin. Bu jarayon oʼlim ehtimolining ortishi bilan bogʼliq. Psixologik darajada bu roʼy berayotgan oʼzgarishlarni anglash va unga moslashishdan iborat boʼladi.

Rivojlangan Yevropa va Amerika mamlakatlari keksalar muammolarini hal qilish brogan sari qiyinlashib bormoqda, hatto uni sekin taʼsir qiluvchi demografik bomba deb atashmoqda. Ayrim mamlakatlarda nafaqa yoshini

qayta ko'rib chiqish talabi qo'yilgan. Masalan, AQSh da 2021-yil holatiga qarasak nafaqa yoshi 67-yoshni tashkil etadi.

Keksalarni e'zozlash, ularni sha'ni va qadr-qimmatini ulug'lash jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi, shuningdek Gerontologiya va yosh davrlar psixologiyasidanining ham e'tiborga molik bo'lgan vazifalardan biridir.

Gerontologiya-tirik organizmlar, jumladan odamning qarish jarayonini o'rganadigan fan.

Qarilikning yosh chegaralarini olimlar turlicha tafsiflashadi. Misol tariqasida ba'zi olimlarning qarashlarini keltirib o'tamiz:

- Chexiyalik professor B.Prijigoda 60-75 yosh qarilik, 75-100 yosh keksalik;
- Dj.Birren :50-75 yosh soñngi yetuklik, 75 yoshdan keyin qarilik.

Rossiya gerontologiyasi asoschilaridan biri I.V.Davidovskiy keksalik boshlanishining aniq sanasi mavjud emas, degan fikrni bildirgan [1]. Yana bir mashxur gerontolog N.F.Shaxmatov keksayish muammolarga biologik nuqtayi nazardan yondashib, psixik keksayishni mazkaziy nerv sistemsining oliv bo'limlarida yoshga oid destruktiv o'zgarishlar natijasi sifatida qaraydi [2].

Har bir nazariya organizmning qarish mexanizmi bo'yicha o'z modeliga tayanadi. Biologik nazariyalarga rus gerontologiyasining asoschisi A.A.Bogomolsning organizm fiziologik jarayonlari uyg'unligining buzulishini keksayishda asosiy omil deb hisoblagan nazariyasini hamda keksayishni intoksifikatsiya sifatida qaragan I.I.Mechnikov nazariyasini kiritish mumkin [2].

Hozirgi zamon Gerontopsixologiya oldida turgan vazifa kuchi, keksalar sog'ligini saqlash, umrini uzaytirish va hayotini qiziqarli o'tkazish uchun keksa kishini oiladan tashqarida hayotiy mezonini o'zgartirish va kengaytirishdan iborat. Keksalarning hozirgi hayoti va kelajakdagagi orzulari haqidagi fikrlarini ruhiy holatlarini aniqlash uchun Depressiyaning geriatrik shkalasini o'lchash metodikasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi (ilova qilinadi).

### **Depressiyaning geriatrik shkalasini o'lchash metodikasi**

**E.V.Karyuxin, V.V.Shmidt va boshqalar**

- 1.Hayotingizdan rozimisiz? HA/YO'Q
- 2.Ko'pincha o'zingiz qiziqish va ishlaringizni tashlab yuborgingiz keladimi? HA/YO'Q
- 3.Siz hayotingizni bo'shliqdan iborat ekanligini his qilasizmi? HA/YO'Q
- 4.Siz tez-tez zerikib turasizmi? HA/YO'Q
- 5.Kelajakka umid bilan qaraysizmi? HA/YO'Q
- 6.Sizni unutish qiyin bo'lgan fikrlar bezovta qiladimi? HA/YO'Q

- 7.Ko'pincha ruxiyatingiz yaxshi holatda bo'ladimi? HA/YO'Q
- 8.Siz bilan qanaqadir yomon voqealarni bo'lib qolishidan qo'rqsizmi? HA/YO'Q
- 9.Ko'pincha siz o'zingizni baxtli deb hisoblaysizmi? HA/YO'Q
- 10.Ko'p hollarda o'z ko'makdoshingiz yo'qligini his qilasizmi? HA/YO'Q
- 11.Tez-tez o'zingizda bezovtalikni his qilasizmi? HA/YO'Q
- 12.Kechasi uyingizda qolsangiz yoki kochada yursangiz yangi his tuyg'ular sizni qurshab oladimi? HA/YO'Q
- 13.Siz tez-tez kelajagingizdan havotirlanasizmi? HA/YO'Q
- 14.Siz boshqa odamlara qaraganda muammolaringiz ko'pligini his qilasizmi? HA/YO'Q
- 15.Hozir hayotligingiz yaxshi deb o'ylaysizmi? HA/YO'Q
- 16.Tez-tez tushkun kayfiyatda bo'lasizmi? HA/YO'Q
- 17.Hozir tirik yurganingiz sizni tashvishga soladimi? HA/YO'Q
- 18.O'tmishingizdan juda ko'p bezovta bo'lasizmi? HA/YO'Q
- 19.Bu hayot sizni xavotirga soladimi? HA/YO'Q
- 20.Yangilik siz uchun qiyinmi? HA/YO'Q
- 21.Siz o'zingizni to'laqonli kuchga ega ekanligingizni his qilasizmi? HA/YO'Q
- 22.Sizning holatingizdan umid yo'qligini his qilasizmi? HA/YO'Q
- 23.Aksariyat odamlar sizdan ko'ra yaxshi yurganliklarini his qilasizmi? HA/YO'Q
- 24.Siz tez-tez mayda-chuyda narsalar uchun asabiylashasizmi? HA/YO'Q
- 25.Tez-tez yig'lagingiz keladimi? HA/YO'Q
- 26.Diqqatingizni to'plashga qiynalasizmi? HA/YO'Q
- 27.Ertalab uyqudan turganingizda qoniqish his qilasizmi? HA/YO'Q
- 28.Jamoaviy tadbirlardan o'zingizni tortasizmi? HA/YO'Q
- 29.Qaror qabul qilishingiz osonmi? HA/YO'Q
- 30.Sizni ongingiz har doimgidek aniqmi? HA/YO'Q

Natijalarni hisoblash: Depressiya holatiga tegishli bo'lgan javoblar

HA javoblar: 2,3,4,6,8,10,11,13,14,16,17,18,20,22,23,24,25,26,28;

YO'Q javoblar: 1,5,7,9,12,15,19,21,27,29,30.

Har bir depressiv holat javoblari uchun 1 ball

Yig'indisi:

0-10-depressiyaning normal ko'rsatgichi;

11-20- depressiyaning o'rta ko'satgichi ;

21-30-depressiyaning yuqori ko'rsatgichi.

Bu metodika natijalari asosida keksa kishilarning psixologik muammolardan kelib chiqadigan depressiv holatlari aniqlanadi.

Qarilikni tezlashtiruvchi omillarga noto'g'ri ovqatlanish, chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, giyohvand moddalarni qabul qilish kiradi. Semizlik, qon tomirlarni, arterosklerozi bilan bog'liq bo'lgan yurak qon tomir xastaliklari, nafas olishni buzulishi bilan kechadigan va endokrin kasalliklari mavjud bo'lgan shaxslar erta qariydilar. Ma'lumki qarish tabiiy jarayon va biologik qonuniyat. Uning natijasida bir qator fiziologik- biokimyoiy reaksiyalarning sustlashishi, tashqi taassurot omillariga chidamlilikning pasayishi kuzatiladi.

Keksalarda organizmni sustlaashishi natijasida turli xil kasalliklar yuzaga keladi. Bularga Demensiya, Alsgeymer kasalligi misol bo'ladi. Demensiya qarilik boshlanishi bilan bog'liq shaxs o'zgarishlari, amneziya, bilish jarayonlari nuqsonlarini o'z ichiga olgan buzulishlarning bir butun jarayonidir. Demensiya bir qancha kasalliklarning umumiyligi nomi hisoblanib, unda miya to'qimalarining o'lishi kuzatiladi. Senil demensiya inson tafakkurining adekvatligida sodir bo'ladigan miyaning organik susayishi kasalligidir.

Alsgeymer kasalligi bu kasallikda qariyalarda bosh miya po'stlog'i hujayralarining sustlasishi kuzatiladi. Bu kasallikning birinchi belgilari kichik-kichik narsalarni esdan chiqarib qo'yishdan boshlanadi. Keyinchalik o'zining qayerda ekanligi, nima qilayotganligi, kim bilan suhbatlashyotganini va yaqin kishilarini ham tanimay qolish hodisalari ham sodir bo'ladi.

Darhaqiqat, qarisi bor uydan tinchlik, fayzu-barokat, izzat-hurmat va mehr oqibat yo'qolmaydi. Keksalar uyimizda ko'rк bag'ishlovchi insonlardir. Keksalarni e'zozlaylik!!!

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. И.В.Давидовский Геронтология-М, 1966
2. Н.Ф. Шахматов, Тихическое старение-счастливое и болезненное,- М.1966, С.31-36
3. О.В.Краснова Слющая социальная психология старения как основная составляющая как социальной геронтологии, П.Мир психологии,1999. N=2. С.96-100